



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

НЕМИС ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ КАФЕДРАСИ 403- ГУРУХ
ТАЛАБАСИ Ғаффорова Хусниданинг ТИЛНИНГ АМАЛИЙ КУРСИ
ФАНИДАН БАЖАРГАН

РЕФЕРАТИ

МАВЗУ: Нутқнинг фонетик бўлиниши

ИЛМИЙ РАЎБАР: Абдурахмонова Раъно

АНДИЖОН- 2013

Nutqning fonetik bo`linishi

I.Kirish:

1. Til bilmoq- el bilmoq.
2. Mavzuning dolzarbligi

II. Asosiy qism:

1. Nutq tovushlarining hususiyatlari
2. Nutqning fonetik bo`linishi.
- 3.Bo`g`in va uning turlari.
4. nemis va o`zbek tillarida bo`g`in ajratish.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

Bizning Vatanimiz, O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin o`z hayotini yangicha yo`llarni qurishdan boshladi. Ya`ni kelajakni bardavom qilib qurish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatorida bo`lish, o`z farzandlarini esa boshqa mamlakatlar bilan tenglashtira olish kabi maqsadlarni o`z oldiga qo`ydi.

Shu borada ijtimoiy iqtisodiy, ma`naviy madaniy, harbiy siyosiy sohalar qatorida ta`limni ham ustuvor yo`l qilib tanlab oldi. Birgina misol keltiradigan bo`lsak, bir necha yillar oldin Yaponiyaga tushgan bomba mamlakat aholisini turli hil kasalliklarga duchor qilib, hattoki mehnatga yaroqsiz holatdagi majruhga aylantirdi. Shunda davlat rivojlanish yo`lini birinchi o`rinda ta`limni ustuvor yo`l qilib oldi. Hatto bu yo`lni mamlakat aholisi ham qo`llab quvvatlab, ta`limni rivojlantirish uchun kerak bo`lsa shaxsiy narsalarni ham davlatga topshirdi. Natijada og`ir qiyinchiliklar iskanjasidan ilm –fan yutuqlaqri orqali davlatni bu inqirozdan olib chiqib ketdi. Buni

bejizga misol qilib keltirmadik.

O'zbekiston Respublikasi ham o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, eskicha sarqitlardan qutilish, yangilik sari intilish, jaxonga yangicha qadamlar bilan yuz tutish, barcha sohalarda ilg'or bo'lishga va eng asosiysi, o'sib kelayogan yosh avlodni har tomonlama kuchli, bilimli, dono hamda insonparvar qilib tarbiyalash yo'lini tanladi.

Shu borada prezidentimiz va davlatimiz tomonidan juda ko'p tashabbuslar olib borilmoqda. Buning yorqin misoli tariqasida” “Ta'lim

to'g'risidagi qonun” hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish provard maqsadlari belgilab olindi.

Prezidentimiz I.A. Karimov kelajak yoshlar qo'lidaligini ta'kidlagan holda ularning ta'lim-tarbiya olishi, yetuk kadrlar bo'lib mamlakatga ustun bo'la olgudek inson bo'lishi uchun jamiki bor imkoniyatlarni yo'lga qo'ydi. Yurtboshimiz hatto o'z muallifligi ostida nashr qilinyotgan kitoblar orqali kelgan mablag' chet elda ta'lim olayotgan talaba yoshlarning bilim olishi uchun sarflandi.

Bugungi kunda har bir yosh o'zbek farzandining ilm-fanning har qaysi sohasida yutuqlarga erishishi, barkamol shaxs bo'lishi uchun imkoniyatlari cheksizdir.

Mana mustaqilligimiz 22 yoshga qadam qo'ymoqda. Bu qisqa davr ichida barcha sohalarga eitibor qaratilmoqda va yuksak yutuqlarga erishilmoqda. Ayniqsa hozirgi davrda ko'plab davlatlar qatori yurtimizda ham chet tillarni o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor qaratilamoqda. Bu hususda prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabr kuni qabul qilingan “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga nazar tashlashimiz ayni maqsadga muvofiqdir.

“...Mamlakatda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un holda kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi”. Ushbu qaror asosida yana shunday ma'lumotlarga ega bo'ldikki, mustaqillik yillarida 5,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis fransuz tillari bo'yicha multimediya darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Chet tili darslari eski an'naviy usuldan holi tarzda zamon bilan hamnafas yangi axborot texnologiyalari ko'magi bilan noana'naviy usulda o'rgatilishi muhimligi asoslab qo'yildi.

Chet tillarni o'rgatish ushbu qarorga binoan, 1-sinf dan boshlanishi ta'sis etildi. Oliy o'quv yurtlarida mahsus fanlar maruza mashg'ulotlari chet tilida olib borilishi belgilab qo'yildi.

Har qaysi soha vakili, albatta ingliz, nemis yoki fransuz tilini o'zlashtirgan bo'lishi bu tilda bemalol suhbat qurish qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinmoqda.

Chet tilni bilish bu juda ko'p imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa bugun, yurtimiz butun dunyo bilan aloqaga chiqayotgan bir paytda chet tillarni mukammal o'zlashtirgan kadrlar ravnaq topishda katta hissa qo'shmoqdalar.

O'zga tilga va uni o'rganishga va o'zlashtirishga bo'lgan e'tibor buyuk ajdodlarimiz davridan bizga meros bo'lib yetib kelmoqda.

Xususan, Alisher Navoy fors va turkiy tilni mukammal bilgan ijodkor hisoblangan va "zullisonnayn" shoir deya e'tirof e'tilgan. Bu mutafakkir ushbu ikki tilda ham yirik-yirik asarlar yozib qoldirgan.

Yana bir buyuk qomusiy olimlarimizdan biri Forobiy 70 ta tilni mukammal bilgan va bularning barchasida mukammal so'zlasha olgan. Tariximizda bu kabi misollar ko'p, albatta.

Intellektual o'sish jarayoni jadal suratlarida borayotgan bugungi kunda ham faqatgina bir til doirasida chegaralanib qolmasdan, uchta to'rtta tilni mukammal biladigan yoshlar safi kengaymoqda.

Men olmon tili va adabiyoti yo'nalishida taxsil olaman. Ushbu kurs ishi doirasida menga "Nutqning fonetik bo'linishi" mavzusini yoritish vazifasi yuklatigan.

Nutq tovushlarining hususiyatlari

Nutq tovushlari fiziologik, akustik va ijtimoiy- ma'no farqlovchi hususiyatlarga ega. Nutq tovushlarining fiziologik va akustik hususiyatlari- moddiy, ya'ni talaffuz, eshitishtirish jihatini, ijtimoiy hususiyati esa tovushlarning tilda bajaradigan vazifasini ifodalaydi. Mashhur tilshunos olim С.И.Бернштейн nutq tovushlari tuzilishining moddiy hususiyatlari va ijtimoiy – ma'no farqlash hususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganish lozimligini ta'kidlab, birinchi hususiyatini – antropofonika, ikkinchisini fonologiya deb atagan.

Fonologiya nutq tovushlarini bir- biridan farqlaydigan belgilarni, nutq tovushlarining ma'no farqlash hususiyatlarini va so'zda ma'lum bo'lganlarda uchrashini, boshqa tovushlar bilan

birgalikda tovushlar zanjirini hosil qila olish tashkil qila olmasligini o`rganadi. N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov larning yozishicha, fonema artikulyatsion akustik belgilarning yig`indisiga to`g`ri keladi va bu belgilar birinchi navbatda nutq tovushining so`z ma`nosini farqlash uchun xizmat qiladi. Buni quyidagi misollarda ko`rish mumkin;

Nemis tilida

O`zbek tilida

Land- Hand- Band

бop- top- 3op

Tier – hier- Bier

бел- сел- эл

Mund-Hund-Wund

от- ит- эт

dann- wann- Mann

Tilda o`zining birorta artikulyatsion va akustik belgisiga ko`ra o`uiga o`hshash tovushdan farqlanadigan, ammo so`z ma`nosini farqlaydigan tovushlar bo`ladi. Tilshunoslikda bunday tovushlarni **tovush variantlari** deb yuritiladi. Nemis tilida bunday tovushlarga kichik til tovushi (R) kiradi bu tovush so`z boshida unlidan oldin, bir undoshdan keyin va qisqa unlidan keyin kelganda o`zbek tilidagi (G`) tovushiga o`hshab ketadi. Nemis tili fonetikasidakichik til tovushi (R) til oldi undoshi (r) undoshining varianti hisoblanadi, chunki yuqorida qayd etilganidek (r) undoshi talaffuz etilsa ham, kichik til tovushi (R) talaffuz etilsa ham so`z ma`nosi o`zgarmaydi. Masalan;

Rabe- qarg`a

Rad- g`ildirak

Regel- qoida

Reis- guruch

Rede – nutq

Sprache- til

Breit - keng

Brot - non

Bu ikki undosh tovushdan qysi birini talaffuz qilish so`zlovchiga bog`liq, ammo hozirgi kunda til oldi (r) tovushi o`rniga kichik til tovushi (R) undoshini talaffuz qilish hollari ko`proq uchraydi.

Ko`rinib turibdiki, nutq tovushlari goh mustaqil fonema, goh biron fonemaning varianti sifatida keladi. Nutq tovushlarining bu xususiyati tovushlarning ijtimoiy ma`no farqlovchi xususiyatlari nuqtai nazaridan organilganda namoyon bo`ladi. Nutq tovushlari akustik yoki fizik xususiyat nuqtai nazaridan qaralsa, ularda ikki hil belgi : tovushning sifat belgisi va miqdor belgisi ko`zga tashlanadi. Nutq tovushlarining uchinchi xususiyati- tovushlarning fiziologik jihati bo`lib, bunda fonemaning artikulyatsiyasida nutq organlarining qatnashishi tushuniladi.

Nutq bir-biri bilan mazmunan bog'langan so'z, so'z birikmalari va jumladan iborat bo'ladi. So'z va so'z birikmalari nutq jarayonida bir va undan ortiq ma'nolar kasb etadi hamda morfologik, sintaktik vazifalarni bajaradi. So'z, so'z birikmalari va jumladan tashkil qilgan nutq zanjiri til tovushlari, bug'inlardan iborat bo'lib, nutqda muayyan fonetik sharoitlarda bir-birlariga ta'siri natijasida qisman yoki butunlay o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar ma'lum qonuniyat zaminida sodir bo'lib, ular majmui fonetik qonunlar deb ham yuritiladi.

1. Knaklaut.

Nemis tilida unlilar so'z va bo'g'in boshida kelganda zarb bilan talaffuz qilinishi

2. Unlilarning kuchli va kuchsiz aytish bilan talaffuz etilishi.

Nemis tilida hamma qisqa unlilar kuchli aytish (*nemischa fester Anschluß*) bilan talaffuz qilinadi, chunki tovush paychalari talaffuz

oxirida bo'shashmaydi va unli o'zidan keyin turgan undosh tovush bilan bog'lanish kuchli bo'lganligi tufayli undosh bilan deyarli qo'shilib ketadi, masalan:

gem Kanne Löffel fünf Bild

3. Unlilarning sifat va miqdor jihatdan farqi.

Nemis tilida unlilar nutq jarayonida sifat jihatidan o'zgarmaydi. Urg'usiz bo'g'inlarda yopiq unlilar o:, u:, ye:, e:, 0:, i:] ham, ochiq unlilar (a:, s:, l:, i:, a:, e:, u:, e] ham o'z sifatini saqlab qoladi. Nemis tili unlilari urg'usiz bo'g'in miqdor jihatdan o'zgaradi: ya'ni reduksiyaga uchraydi, chuzik. unlilar yarim chuzik talaffuz etilsa, kiska unlilar esa yana kam kiskarok talaffuz etiladi, masalan:

cho'ziq unlilar qisqa unlilar

urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'in urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'in

a:	a.	a	a
i:	i.	X	X
i:	i.	i	i
s:	e.	e	s

e: e. e e

b: o. Y Y

u: Y. ee se

v: 0.

4. Unlilar o'zgarishining fonetik qonuniyatlari. Nemis tili unlilarining nutq jarayonida o'zgarishi qonuniyatlari uning barcha rivojlanish davrlarini o'z ichiga oladi. Bunday fonetik xodisalar so'zlarning grammatik o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan. Masalan: kuchli fe'llarning uch asosiy forma yasallishida fe'l o'zagidagi unli tovush o'zgaradi. Imperfekt (o'tgan zamon) fe'l shaklining yasallishida ablaut (Ablaut) fonetik xodisasi muhim ahamiyatga ega. Ablaut natijasida kuchli fe'llarning o'zagidagi unlilar o'zgaradi, masalan:

Infinitiv (Infinitiv)	Imperfekt (Imperfekt)		Partizip II (Sifatdosh II)
Waschen	Wusch	gewaschen	yuvmoq

5. Undoshlar o'zgarishining fonetik qonuniyatlari. Nemis tilida so'z va bo'g'in oxirida, bir bo'g'inida kelgan (b, d, g, z, v) jarangli undoshlar jarangsizlashib (p, t, k, s, f) undoshlar kabi o'qiladi. Bu fonetik xodisa *a u s l a u t g e z e t s* (*A u s l a u t g e s e t z*) deyiladi, masalan:

Verb - fe'l abfragen - so'ramoq

Mund - og'iz endlich - nihoyat

6. Assimilyatsiya. So'zda yonma-yon kelgan ikki xil tovushning

bir-biriga ta'siri natijasida yuzaga kelgan o'xshashlikka -assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya *p r o g r e s s i v* va *r e g r e s s i v* bo'ladi. **Progressiv assimilyatsiya** nemis tilida ham, o'zbek tilida mavjud bo'lib, unda oldin kelgan tovushning ta'sirida keyingi tovush oldingiga o'xshash tovushga aylanadi, o'zidan oldingi tovushning yumshoqligiga, jarangli jarangsizligiga moslashadi.

Nemis tilida bir soʻzning oxirida kelgan jarangsiz undosh taʼsirida ikkinchi soʻzning boshida kelgan jarangli undosh yarim jarangsiz aytiladi, masalan:

mit dem *Gast - mehmon bilan das *Buch - kitob

Regressiv assimilyatsiyada jarangli undosh oʻzidan keyin kelgan jarangsiz undosh taʼsirida jarangsizlashadi, masalan:

die Stadt - shaxar du fragst - sen soʻrayapsan

7. Yarim jarangsizlanish. Nemis tilida jarangli undoshlar soʻz boshida yarim jarangsiz oʻqiladi. Fonetik yozuvda bu fonetik xodisa koʻpincha ifodalanmasada, baʼzi tilshunoslar yarim jarangsizlanishi [*] belgisi bilan ifodalaydilar. Oʻzbek tilida jarangli undoshlarning bunday oʻzgarishi kuzatilmaydi.

8. Jarangsiz undoshlarning jarangli undoshlar bilan almashinuvi. Nemis tilida ham, oʻzbek tilida ham shovqinli jarangli undoshlar soʻz oxirida jarangsizlanadi. Shu jarangsizlangan undoshdan keyin soʻzning morfologik oʻzgarishi bilan unli qoʻshimcha yoki unlibilan boshlanadigan qoʻshimcha qoʻshilsa, jarangsiz undosh jarangli undosh bilan almashadi, masalan; nemis tilida: der Tag (kun) die Tage (kunlar)

der Freund (doʻst) die Freunde (doʻstlar)

9. Akkomodatsiya. Nemis tilida lablanmagan unlilar lablangan qoʻshni unli taʼsirida qisman lablanadi. Bu fonetik xodisa a k k o m o d a s i y a deyiladi, masalan:

tun – bajarmoq das Lob - maqtov

10. Aspiratsiya. Nemis tilida portlovchi, jarangsiz (r, t, k) undoshlari baʼzi xollarda kuchli nafas chiqarish (Aspiration - aspiratsiya) bilan talaffuz etiladi. Ularning talaffuzidan keyin ogʻiz boʻshligidan bir oz **h** - tarzidagi shovqin bilan havo chiqadi, bu undoshlarning portlashidagi shovqinni pasaytiradi. Portlovchi, jarangsiz r, t, kundoshlarining talaffuzi vaqtidagi kuchli nafas chiqarish darajasi shu undoshlarning soʻzdagi joylashish oʻrniga bogliq.

1) Agar **r, t, k** undoshlari urgʻuli boʻgʻin boshida unlidan yoki sonordan oldin kelsa kuchli nafas chiqarish bilan talaffuz etiladi, masalan:

Kreide – bo'r Tal - vodiyl Puppe – qo'g'irchoq

Platz - joy kommen - kelmoq Tante – xola

Knie - tizza

2) Agar **r, t, k** undoshlari urg'uli bo'g'in (so'z)ning oxirida kelsa ham qo'shimcha nafas chiqarish bilan aytiladi, masalan:

Verb - fe'l Tag - kun Hand – qo'l Art - xil

3) Agar **r, t, k** undoshlari urg'usiz bo'g'inlarda unlilardan oldin kelsa kuchli nafas chiqarish bir oz pasayadi, masalan:

Alpen - Alp tog'lari Rente - pensiya

mutig – jasur Werke - zavodlar

4) Agar **r, t, k** undoshlaridan keyin boshqa portlovchi, jarangsiz undosh yoki biron sirg'aluvchi undosh kelsa qo'shimcha nafas chiqarish ayniqsa kuchsizlanadi, masalan:

Kopf - bosh bleibst - qolayapsan

sagst - aytayapsan singst - kuylayapsan

O'zbek tilida p, t, k undoshlari o'zbek tilining barcha undoshlaridek nemis tili undoshlariga qaraganda kuchsizroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ham o'zbek tilida aspiratsiya fonetik

xodisasi uchramaydi, masalan: **maktab, qop, top, gap, kerak, terak, katak, tarix, ot, tosh, temir, tomir, tirik, tetik.**

11. Geminatsiya. Nutq zanjirida tovushlar uch qismdan iborat bo'ladi: boshlang'ich qism, asosiy qism, oxirgi qism. Til tovushining boshlang'ich qismini talaffuz qilish uchun nutq organlari xozirlanadi va talaffuz qilishni boshlaydi, nutq organlarining shu tovushning talaffuziga o'tib olib talaffuz qilgan qismi asosiy qismdir, nutq organlarining tovushning talaffuzidan so'ng boshlang'ich holatga qaytayotgan vaqtda hosil qiladigan qismi oxirgi qismdir. Bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tish jarayonida tovushning oxirgi qismi undan keyin talaffuz etiladigan tovushning boshlang'ich qismiga qo'shilib ketishi geminatsiyadir. Bu quyidagicha sodir bo'ladi:

bunda bir soʻz oxiridagi undoshning oxirgi qismining hosil boʻlish oʻrni va usuliga koʻra oʻxshash boʻlgan keyingi soʻzning boshida kelgan

undosh tovushning boshlangʻich qismi bilan qoʻshilib ketadi. Shunda soʻzlar chegarasida kelgan ikki oʻxshash undosh bitta qisqa undosh kabi aytiladi. Nemis tilida bu fonetik xodisa qoʻshma soʻzlar tarkibiy qismlari oʻrtasida sodir boʻladi.

Nutqning fonetik boʻlinishi.

Tilda nutq turli hajmdagi fonetik birliklardan tashkil topadi. Bu fonetik birliklar fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik soʻz, soʻz (morfema), bogʻin va tovushlardan iborat. Bu fonetik birliklar nutq zanjirini tashkil etadi- fonetik birliklarning tabiiyligi ularga zanjirida qoʻllanishidir, chunki fonetik birliklar nutq zanjiridan tashqarida soʻzlovchi koʻzlagan vazifani bajara olmaydi, soʻzlarning maʼno doirasi torayadi, til tovushlarining boʻlma qatʼil tovushlari bilan birgalikda nutqning shakllanishi uchun xizmat qilish imkoniyati torayadi.

Fraza koʻpincha gapga teng boʻladi. Jumla (faza) nutqning ikki pauza (toʻhtam) orasidagi intonatsion birligidir. Fraza yoyiq sostavli yoki yigʻiq sostavli iborat boʻladi: Masalan

In Taschkent gibt es viele Werke, Fabriken, und Industriezweige.

Toshkentda koʻplab zavodlar, fabrikalar va sanoat tarmoqlari bor.

Agar jumla yoyiq sostavli boʻlsa sintagmalarga (taktlarga) ajratiladi, agar jumla yigʻiq sostavli boʻlsa, bitta sintagmadan iborat boʻladi:

Ich wohne in Taschkent.

Men Toshkentda yashayman.

Nemis tilida ham, oʻzbek tilida ham sodda yoyiq jumlar, qoʻshma gaplar ikki yoki undan ortiq sintagma - taktlarga boʻlinadi. Bir jumla sintagmalari toʻhtam orqali bir- birida ajratiladi va bu toʻhtam sintagmatik toʻhtam (pauza) deyiladi.

Masalan;

``Toshkentda koʻplab zavodlar, fabrikalar va sanoat tarmoqlari bor`` jumlasini oʻzbek tilid ham, nemis tilida ham beshta sintagmadan iborat.

Har bir sintagma (takt) nemis tilida bir yoki undan ortiq fonetik soʻzda tashkil topgan boʻlishi mumkin. Fonetik soʻzdan urgʻu olgan soʻzatrofiga urgʻu olmagan soʻzlar yigʻilgan boʻladi. Va bunday urgʻu olgan va urgʻu olmagan soʻzlarning mazmunan birikuvini fonetik soʻz deyiladi. Oʻzbek tilida sintagmalar fonetik soʻzlarga boʻlinmaydi, chunki oʻzbek tilida barcha soʻzlar asosan urgʻulidir.

O. Zacher fonetik sathni **ritmik guruh** deb ham aytadi. Va har bir fonetik soʻz, ritmik guruh

ko`pincha bir gap bo`lagiga (ega guruhi, kesim guruhi, to`ldiruvchi guruhi, hol guruhiga) to`g`ri kelishini ham ta`kidlagan, masalan:

Der General- nahm- nicht die geringste- Notiz- von Ihnen. (B.Kellermann)

Har bir fonetik so`z (ritmiik guruh) ikki yoki undan ortiq sozlardan tashkil topadi;

Toshkentda ko`plab zavodlar, fabrikalar va sanoat tarmoqlari bor, jumasi o`zbek tilida 7ta so`zdan, nemis tilida 8 ta so`zdan tashkil topgan va bu so`zlarni nutq zanjiridan ajratib olib, fonetik thlil qilsa bo`ladi.

Har bir so`z o`z navbatida bir yoki uhdan ortiq bo`g`indan tashkil topadi va bo`g`in nutqnig eng kichik birligi hisoblanadi.

Nemis tilida ham, o`zbek tilida ham ko`pincha so`zdagi bo`gin soni unlilar soniga teng keladi. Yuqoridagi jumla nemis tilida 18 ta, o`zbek tilida esa 21 ta bo`g`indan iborat.

Bo`g`in nurqninng ehg kichik birligi hisoblansa, tovush (tilning eng) kichik birligidir. Til tovushlari nutqning boshqa bo`laklarga bo`linmaydigan tarkibiy qismidir. Til tovushlari nutq poydevoridir.

Bo`g`in va ularning turlari

Bo`g`in nutq zanjirining eng kichik birigi bo`lib, nutq jarayonida o`pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq apparati orqali hosil qilingan nutq birligidir. Bo`g`in jarayonida o`pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq apparati orqali tasqariga bo`linib, bo`linib chiqishi natijasidahosil bo`ladi. Bu bo`linish bir tovushdan yoki bir necha tovushdan, to`g`riro`g`i tovushlar birikmasidan hosil bo`ladi. O`pkadan chiqayotgan har havo oqimining har bir bo`linishi bir bo`g`inni hosil qiladi. Nutq jarayonida ayrim tovush emas, balki bo`g`inlar bir-birida ajralib turadi. Shuning uchun ham nutqning ehg kichik tovush birligi bo`g`in hisoblanadi.ayrim til tovushlari bir bo`g`inni tashkil qilishi ham mumkin. Masalan; o-ben, a-ber; o`zbek tilida, o-lim, e-tik so`zlaridagigek. Nemis tilida ham, o`zbek tilida ham so`zlar bir bog`inli yoki ko`p bo`g`inli bo`ladi. Va har bir bo`g`in ba`zi hollarda bir unlidan, aksariyat hollarda unli va undoshlar birikmasidan tashkil topadi. Nemis va o`zbek tillarida bo`g`inlar quyidagicha tarkibiy qismlardan tar`shkil topadi.

Nemis tilida.

O`zbek tilida

У- унли К-ундош

УК – an

УУК-art

У- y keladi

ук- иш, от, уч, ун.

KYKK- sind шарт, дард, гард

YKKK- Ernst

KYK- nur kyk- бop, top,. Зop

Nemis va o'zbek tillarida bo'g'in ajratish

Odatda bo'g'inning boshlanishida tovush past bo'ladi, so'ngra kuchayadi, bog'in ohiriga borib, tovush yana pasayadi. Havoning o'tiahida zarbga duch kelgan fonema bo'g'inni yuzaga keltiruvchi nutq tovushi hisoblanadi. Nutqda ayrim tovush yoki fonema emas, balki bo'g'inlar bir—biridan ajralib turadi. Bo'g'inlar unli yoki undosh tovush bilan tugaydi. Nemis tilida bo'g'inlar quyidagi hollarda uchraydi;

Bog'in chegarasi cho'ziqunli va undan keyin kelga undosh o'rtasida bo'ladi. Masalan; a-ber, ,o-ben, ihre-

Bunda unli o'zidan keyin kelgan undosh bilan kuchsiz bog'lanadi- bunday bo'g'inlar odatda ochiq bo'g'inlardir. Bo'g'innig bu turi o'zbek tilida bor.

Masalan; Ko-mil, o-lim, a-niq.

So'zda bo'g'in chegarasi ikki undosh o'rtasidan o'tadi. Bunda unli qisqa bo'lib o'zidan keyingi undosh bilan kuchli bog'lanadi. Masalan; tur- nen-

Bo'g'in chegarasi cho'ziq unli va sonor, portlovch undoshdan iborat b'olgan undoshlar birikmasidan oldin o'tadi. Bu holda ham cho'ziq unlilar ochiq bo'g'inni tashkil qilishda faol ishtirok etadi. Masalan; Pu- blikum.

Bo'g'in chegarasi qisqa unli va u bilan kuchli bo'langanundosh orasidan o'tadi. Masalan; Was-ser, mach- en.

Bo'in chegarasi ikki unli orasidan o'tadi. Masalan , Bau- er.

Agar so'zda uchta undosh birikib kelsa, bo'g'in chegarasi ohirgi undosh oldidan o'tadi. Masalan; Häl-f-te.

Bo'gin ikki undosh orasida bo'lsabu shartli yopiq bo'g'indir. Masalan; Tag, gut.

Nemis tilida so'zlar fonetik bo'g'inlardan tashqari orfografik bo'inlarga ham ajratiladi va ular morfologik bo'g'inlar bilan qiyoslanadi.

Fonetik bo'g'in ajratish

Diens- tag

Hän-de

Deck- e

Was-ser

Regn-en

Ü-brig

Orfografik bo`g`In ajratish

Diens-tag

Hän-de

Deck- e

Was-ser

Reg-nen

Üb-rig

Morfologik bo`g`in ajratish

Hän-de

Deck- e

Regn-en

Übr-ig

Nemis tilida uch turga bo`linadi;

1. **Ochiq bo`g`in-** unli bilan tugagan bo`g`in- treten
2. **Yopiq bo`g`in-** undosh bilan tugagan bo`g`in- essen
3. **Shartli yopiq bo`g`in-** gut, Tag

Shartli yopiq bo`g`inlar so`zlarning morfologik o`zgarishi natijasida ochiq bo`g`inga aylanadi. O`zbek tilida esa faqat ochiq va yopiq bo`g`inlar mavjud, lekin o`zbek tilidagi yopiq bo`g`inlar ham ochiq bo`g`inlarga aylanib ketishi mumkin. Shunday ekan o`zbek tilidagi yopiq bo`g`inlarni ham ochiq bo`g`in deb atash mumkin.

Nemis va o`zbek tillarida bo`g`in turlari

Nemis tilida

Ochiq bo`g`in yopiq bo`g`in shartli yopiq bo`g`in

Treten	fressen	trat
Tragen	treffen	trug
Lesen	essen	a'ß
Beben	backen	buck
Schufen	scheffen	schuf
Laufen	halten	hielt

O`zbek tilida

Ochiq bo`g`in yopiq bo`g`in shartli yopiq bo`g`in

О-та	мак-таб, от	о-ти
Бо-ла	бул-бул	то-ми
У-ка	илм, би-лим	гу-ли
Бу-гун	беш	га-пи
То-ға	чо-йи(м)	

Nemis tili bo`g`inlarining o`zbek tili bo`g`inlaridan yana bir farqi shundaki, so`zning morfologik o`zgarishi natijasida nemis tilida ochiq va yopiq bo`g`inga aylanmaydi., o`zbek tilida esa bining aksini ko`rish mumkin, masalan; о-та(м), бо-ла(м), у-ка(м) so`zlarining ikkinchi bo`g`inlari ochiq bo`g`indan yopiq bo`g`inga от, том,, гул, гап, сир kabi, yopiq bo`g`inlar ў-ти, гу-ли, га-пи, сири, чо-йи kabi ochiq bo`g`inga aylanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda til o`rganish,

til bilish eng muhim dolzarb masaladir. Chet til bilgan yoki o`rganayotgan odam yangi bir hayotga kirayotgan yoki yaratyotgan bo`ladi. Biz bilamizki O`zbekiston ham rivojlanyotgan davlatlar qatoriga kirib bormoqda. Har sohada birinchiliklarga intilmoqda va buni amalda ham isbotlamoqda. Bu o`zicha bolayotgani yo`q bunga erishish uchun ko`plab mamlakatlar bilan muloqatga kiroshmoqdamiz.

Yuqorida aytib o`tganimizdek Prezidentimiz tomonidan juda katta tashabbuslar ko`rsatilmoqda. Biz ham o`z oldimizga chet tillarni o`rganishni maqsad qilib oldik va so`z

beramizki avlodlarni ongli, bilimli, faol dunyoqarashi keng madaniyatli shaxslar qilib tarbiyalashga o'z hissamizni qo'shamiz.

Men nutqning fonetik bo'linishi haqida o'z ishimni nihoyaladim. Buni yozish mobaynida men o'z bilimlarimni kengaytirdim va takrorladim. Men bu mavzuni yoritishda nemis va o'zbek tillarida nutqning fonetik bo'linishini ichki tomonlarini ochib berishga ham harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1). I. A. Karimov "Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili" T, 1995-yil.
- 2). I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", T, 2010-yil.
- 3). T. A. Nurmatov „Nemis tili fonetikasi“ Toshkent – “O'zbekiston - 2002
- 4). M.T. Iriskulov "Tilshunoslikka kirish". T., 2009